ta'sirining o'zaro uyg'unligi natijasida shakllangan. Ushbu an'anaviy shakllar bugungi kunda ham qoraqalpoq poeziyasining badiiy rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Ахметов С. Әдебият хәм критика. Нөкис, 1978.
[2]. Мамбетов К. Шығыс әдебияты тарийхы. Нөкис, "Билим", 1993.
[3]. Туйчиев У. Адабий турлар ва жанрлар. 2-жилд, Тошкент, "Фан", 1992.
[4]. Қабдолов З. Сөз өнери. Алматы, "Мектеп", 1982.
[5]. Мамбетов К. Әдебият теориясы. Нөкис, "Билим", 1995.
[6]. Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. Тошкент, 1976.
[7]. Мамбетов К. Ерте дәўирдеги қарақалпақ әдебияты. Нөкис, "Билим", 1992.
[8]. Әжинияз. Таңламалы шығармалары. Нөкис, "Қарақалпақстан", 1965.

Hafizova Muxlisa Abdig'ani qizi (O'zDJTU "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti v.b., filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); e-mail:muxlisah@gmail.ru)

ERKIN VOHIDOV LIRIKASINING BADIIY JOZIBASI

Annotatsiya. *Maqolada Erkin Vohidov ijodining o'ziga xos tomoni o'rganiladi. Shoir ijodida Navoiy va Fuzuliyning ta'siri, g'azallariga bog'lagan muxammaslari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *g'azal, muxammas, shoir, ijod, mumtoz adabiyot, asar, she'riyat.*

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОЧАРОВАНИЕ ЛИРИКИ ЭРКИНА ВОХИДОВА

Аннотация. *В статье рассматриваются специфические аспекты творчества Эркина Вохидова. Анализируется влияние Навои и Фузулы на творчество поэта, мухаммасы, которые он придавал своим газелям.*

Ключевые слова: *газель, мухаммас, поэт, творчество, классическая литература, творчество, поэзия.*

THE ARTISTIC CHARM OF ERKIN VOKHIDOV'S LYRICS

Annotation. *The article studies the specific aspects of Erkin Vokhido's work. The influence of Navoi and Fuzuli on the poet's work, the mukhammas he attached to his ghazals are analyzed.*

Keywords. *Ghazal, mukhammas, poet, work, classical literature, work, poetry.*

Kirish (Introduction). Erkin Vohidov mumtoz adabiyotni sevib, Navoiy, Fuzuliy singari yetuk adiblar etagidan tutdi. Ularni ustoz deb bildi. Asarlarini katta qiziqish va qunt bilan o'rgandi. Lekin aynan ularga taqlid qilib, bir qolipda ijod qilgani yo'q, balki o'z yo'lini topishga erishdi. Natijada o'zining yo'lini, uslubini topdi: "Erkin she'riyatda taqlid davridan sakrab o'tib ketdi. Navoiyga ham, Boburga ham, Mashrabga ham taqlid qilmadi. Ularga asir bo'lib qolmadi ham. O'sha mumtoz shoirlarning she'r san'ati sirlarini o'rgandi. O'rganganda ham qayta-qayta o'rgandi. Nihoyat, o'z yo'lini topdi. She'r ham kuy, ham fikr, ham suvrat, ham tushuncha. U yig'i, u faryod, u quvonch, u nur..." [1;32-b.] deganida Said Ahmad tamomila haq edi. Shoir aruz vaznida yozilgan she'r va muxammaslari bilan o'zbek adabiyoti chamanzorida mudrab yotgan aruzni shunday asarlar yordamida uyg'otib yubordi.

E.Vohidov Navoiyning g'azallariga go'zal taxmislar ham bog'lagan. Ma'lumki, mumtoz adabiyotimizda muxammaslar bog'lash kuch sinash bahslashuv vositasi bo'lgan. Lekin muxammas E.Vohidov uchun ustozlari bilan bahslashish emas, o'z fikr va kechinmalarini yanada chuqurroq ifodalash, adabiy musobaqaga kirishish vositasi. Shoir bog'lagan muxammaslarda ham an'anaga muvofiq, g'azalning vazni va qofiyasi saqlangan.

"Aylagach" radifli g'azaliga bog'langan muxammas vazni ramali musammani mahzuf (foilotun foilotun foilotun foilun) vaznida yaratilgan. Bu ham taxmisning mukammal va go'zal ohangda bo'lishini ta'minlagan.

Ko'z ochar gulshanda g'uncha, bulbul afg'on aylagach,
Nega afg'on aylay, ul gul yuzni tobon aylagach, [5;120-b.]

Taxmisning birinchi bandi shunday boshlanadi. Radifning asli qofiya bilan bir xilda bo'lishi, ya'ni, aylagach radifi g'azalni jozibali, ohangdor bo'lishini ta'minlagan. E.Vohidov an'anaga muvofiq, hazrat Navoiy fikrlarini bevosita davom ettirgan, natijada uyg'unlik paydo bo'lgan. Bu esa shoirni hazrat Navoiy g'azallarini mukammal bilganligi, uning uslubi, fikr teranligini chuqur anglaganligi ifodasidir. Shoirning yana bir taxmisi hazrat Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi 169-g'azaliga bog'langan. Bu g'azalning 7 baytiga ham to'liq taxmis bog'lagan. G'azalda ifodalangan ma'no mushtarakligi shoirning yuksak mahoratidan dalolat berib turibdi.

Ayriliq oni yaqindir, kema yo'l bongin cholur,
Vah, meni tashlab firoqqa, yor yiroqqa yo'l olur,
Jon borib jono bilan, sohilda bir jismim qolur,
Har qachonkim kemaga ul oy safar raxtin solur,
Mavjlig' daryo kabi oshufta ko'nglim qo'zg'olur. [5;404-b.]

Muxammas shunday boshlanadi. Shoir oshiqning ruhiy holatini o'ziga xos yo'sinda ifolaydi. Yor kemada dengizda suzib ketdi, oshiq devona qalbi bilan sohilda yolg'iz. Uning qalbi go'yo quyoshda daryo singari nurdan mavjlangan. Muxammas Navoiy g'azaliga uyg'unlik kasb etib, mazmun mohiyatda birlikka erishiladi. Bu esa muxammasning shartlaridan biridir. Shoir muxammasning so'nggi bandiga kelib, maqsadiga to'la erishadi.

Sun qadah, bergil menga jonim haqin, ey piri dayr,
Kim qadahlar zarbidan chiqsin chiqin, ey piri dayr, [5;404-b.]

Ya'ni, "Qadah sunmoq" Allohning jilvalariga maftun bo'lmoqdir. Yaratgan bergan jonining haqi ibodatda ekanligi, oshiqning holatida komillikka erishishning so'nggi bosqichi, ya'ni Alloh jamoliga erishishdir. Bormi Erkinga ul ustozdin yaqin, ey piri dayr – bu baytda esa murshid, pir ma'nosida qo'llanilib, o'z shogirdini ilohiy ma'rifat nurlari bilan ozuqlantirib turadi. Shoir uchun Navoiy ijodi shunday ma'rifatparvarlik makoni edi. Keyingi o'rinda esa Navoiy oshiqning g'am kemasini g'arq etib, barcha azoblardan qutiladi. Bu muxammasning shoir ijodida katta o'rni borligini ko'rsatib turibdi. Navoiy ijodini o'rganish, uning g'azallarini yoddan bilishi, ustozlaridan tinmay soatlab g'azal tahlillarini tinglashi shoirning shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O'zbek adabiyotshunosligida Erkin Vohidov ijodi yuzasidan qilingan tadqiqotlar oz emas, shoir ijodining muayyan jihatlari O.Sharafiddinov, M.Qo'shjonov, N.Rahimjonov, N.Karimov, U.Normatov, R.Inog'omov, I.G'afurov, B.Nazarov, G. Vohidova, T.Sodiqova, Sh.Otabeklarning risola va maqolalari hamda G.Keldiyorova, S.Maqsumova, D. Azimova, Z.Baltayevalarning monografik tadqiqotlarida tahlilga tortilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Shuningdek, Izzat Sultonning "Adabiyot nazariyasi" asari tadqiqot ishning nazariy asosini belgilab beradi. Shuningdek, O.Sharafiddinov, S.Ahmad, M.Qo'shjonov, O.Madayev, N.Karimov, G.Vohidova, N.Vladimirova, M.Yunusov, U.Normatov, I. G'afurov, A.Ulug'ov, U.Hamdam, B.Karim, A.A'zam tadqiqotlarida ham Erkin Vohidov ijodiga muayyan munosabat bildiriladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results) Do'stona ijodiy gurunglarda, tungi mutolaa soatlarida, keksa aruznavis shoirlar bilan suhbatlarida E.Vohidov aruz ilmi haqidagi tasavvurlarini, bilimini yanada kengaytirish va boyitishga muvaffaq bo'ldi. U, hatto Navoiy va Fuzuliy g'azallarining poetik latofatini boshqa zamondosh shoirlarga qaraganda chuqurroq his qiladigan va shunday badiiy latofatning o'z she'riyatidan ham ko'rinib turishiga erishdi.

Bahs atoqli ozarbayjon shoiri Fuzuliy haqida borganda, uning Alisher Navoiy hazratlarini o'ziga ustoz deb tanlagani va buyuk o'zbek shoiri she'riyatidan bahramand bo'lib ulg'ayganini unutmaslik kerak. Yana shuni aytish kerakki, u Navoiyga oddiy taqlid qilish bilangina kifoyalanmagan. U kezi kelganda, Navoiy bilan musobaqaga kirishgan. Shu hol Fuzuliy "Layli va Majnun" dostonining, Fuzuliy g'azallarining katta badiiy kuchga ega bo'lishida muhim omil bo'lgan.

"Qardosh ozarbayjon xalqining otashnafas farzandi Muhammad Fuzuliy, deb yozadi E.Vohidov, turkiy g'azal uslubini kamolot cho'qqisiga ko'targan buyuk siymolardan biri sanaladi. Uning g'azallari ravon va musiqiyligi, o'ynoqiligi bilan, go'zal tashbehlarga boyligi bilan ko'ngillarni band etadi.... O'zbek xalqi bugunda ham Fuzuliyni astoydil sevadi..." [2;104-b.].

E.Vohidov: "O'zbek xalqi bugunda ham Fuzuliyni sevadi", deb yozganida, birinchi navbatda, o'zini nazarda tutgan bo'lsa, ajab emas. Negaki, agar Navoiy g'azallari bizni o'zidagi ma'nolar qatlami bilan rom etsa, Fuzuliy g'azallari o'ynoqiligi, badiiy soddaligi va go'zalligi bilan bizni maftun etadi. Balki shuning uchunmi shoir bir she'rida

Mening shoirligim yolg'ondir, ammo
Fuzuliy she'riga oshiqligim rost [5;39-b.]

deb yozadi. "Shoirlik qismati" risolasidagi quyidagi so'zlar fikrlarimizning yana bir isboti bo'la oladi: "80-yillarning oxirlarida Yugoslaviyada bir necha kun mobaynida jahon shoirlarining she'riyat bayrami bo'ladi... Bu bahs bir necha soat davom etib, turk shoiri Fuzuliydan biladigan she'rlari tugaganidan keyin ham Erkin ulug' shoirning o'nlab g'azallarini yoddan o'qiyveradi. Erkinning Fuzuliyga muxabbati, ko'p-

chilik g‘azallarini yod bilishiga qoyil qolgan turk shoiri “Biz Fuzuliyni ozarbayjon va turk shoiri” deb yuribmiz-u, aslida, u o‘zbek shoiri ekan” [3;65-b.].

E.Vohidovning g‘azallarida Fuzuliyning ta’siri sezilib, jo‘shqinlik ufurib turadi. Shoirning ifoda usulidan tortib, mazmun mushtarakligi ham juda yaqin.

Olam ahli ijra dildosh, izlama kezma jahon,
Zarga zor har yerda bordir, zorga zor hech joyda yo‘q. [5;425-b.]

mazmunidagi bayti Fuzuliyning:

Aylamaz xilvat saroyi sirri vahdat mahrami,
Oshiqi ma’shuqadan, ma’shuqi oshiqdan judo. [4;27-b.]

bayti ta’sirida yozilganini ko‘rish mumkin. Ikki g‘azalning mazmunan yaqinligi bo‘lmasa-da, ifoda yaqinligini kuzatish mumkin. Ya’ni shoir bu olamdan dildosh, sirdosh izlama. Zarga zorlar bo‘lishi mumkin, lekin dildoshni topish qiyin desa, Fuzuliyda esa Xilvat saroyida mahramlardan sir saqlab bo‘lmaydi, yor va oshiq bir-biridan judo bo‘ladi. E.Vohidov Fuzuliy ijodiga o‘zgacha mehr beradi. Uning ifodalaridan ham buni sezish mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqorida aytib o‘tganimizdek, E.Vohidov aruzga murojaat etgan yillarida aruz tanazzul jarayonini kechirayotgan, hatto mumtoz Sharq poetikasini yaxshi bilgan G‘.G‘ulom, Oybek, M.Shayxzoda ham aruzga yangi nafas berish lozimligini xayollariga ham keltirmayotgan edilar. Negaki, Fitrat va Cho‘lpon tufayli yozma adabiyotdan qaytadan o‘rin olib, mavqeyi kundan kunga o‘sib borayotgan barmoq ularning barcha ijodiy ehtiyojlarini qondirayotgan edi. Aslida, E.Vohidov ham shunday ijodiy holatida yashayotgan edi. U bu haqda shunday deydi:

“Men aruzga murojaat qilganda, bir necha maqsadni ko‘zda tutgan edim: birinchidan, o‘zimni yangilash, odatiy fikrlash uslubidan, odatiy vazn va qofiyalardan uzoqlashish”. Biz shoirning bu so‘zlarini o‘qir ekanmiz, Navoiy hazratlarining E.Vohidovni o‘ylantirib qo‘ygan quyidagi satri xotiramizga keladi: “El netib topgay menikim, men o‘zimni topmanam”. “Navodir ush shabob” devonidagi bu bir misra, deb yozadi E.Vohidov, xayolimni band etib, Navoiy kitobini yana qo‘lga oldim. Hazrat qalamidan to‘kilgan borliq durdonalar kabi bu satr ham meni qayta hayajon va qayg‘uga soldi. Bu olamda yo‘qotishlar ichidagi eng og‘ir yo‘qotish, insonning o‘zligini yo‘qotishidir...” [2;104-b.].

Demak, E.Vohidovning aruzga murojaat qilishidan maqsad, avvalo, ijodiy yangilanish bo‘lgan. U G‘ayratiy va G‘.G‘ulom maktabida “tahsil olgani”da Fitrat va Cho‘lponning ijodiy izlanishlari bilan XX asr o‘zbek she’riyatining yetakchi vazniga aylangan barmoq vazni “sir”larini egallagan bo‘lsa, Navoiy va Fuzuliy dorilfununida ta’lim olgan yillarida mumtoz Sharq adabiyotini o‘z yelkasida ko‘tarib turgan aruz “sir”larini egallashga va sovet davriga kelib, qarib va horib qolgan aruzga yangi nafas bag‘ishladi.

E.Vohidov ijodi o‘ziga xosligi, tasvir uslub va usullarining rang-barangligi bilan ajralib turadi. U Navoiy va Fuzuliyning adabiy merosini o‘zining ilhom va ijod chashmasi deb bildi. Bu ikki chashmaning Turkistonga yetib kelgan irmoqlaridan doim bahramand bo‘lib yashadi. Ana shu bahramandlik, bir tomondan, Erkin Vohidov ijodida mumtoz Sharq she’riyati an’analarining yangilangan holda davom etayotganini namoyish etsa, ikkinchi tomondan, E.Vohidov she’riyati va lirik qahramonining o‘qtin-o‘qtin yangilanib turishiga bir bekatda to‘xtab qolmasligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Саид Ахмад. Танланган асарлар. III жилд, Тошкент, “Шарқ”, 2000, 32-бет.
(2). Воҳидов Э. Шоиру шеъру шуур. Адабий эсселар, Тошкент, “Ёш гвардия”, 1987, 104-бет.
(3). Иноғомов Р. Шоирлик қисмати, Тошкент, “Университет”, 1999, 64–65-бетлар.
(4). Муҳаммад Фузулий. Девон. Биринчи жилд, Тошкент, “Адабиёт ва санъат”, 196, 27-бет.
(5). Воҳидов Э. Танланган асарлар. Тошкент, “Шарқ”, 2019.

Хурмаматова Нилуфар Муродилжон кизи (магистрант 2-го курса Андижанского государственного университета; xurmamatovanilufarov@gmail.com)

БАЙРОН КАК ОСНОВАТЕЛЬ РОМАНТИЗМА В АНГЛИИ

Аннотация. *Дж.Г.Байрон, полное имя – лорд Джордж Гордон Байрон, одна из наиболее важных и влиятельных фигур романтического движения в Англии. Он родился 22 января 1788 года в Лондоне и за время своей творческой деятельности оставил глубокий след не только в поэзии, но и в других областях литературы. Произведения Байрона, а также его личная жизнь и характер отражают основные характеристики эпохи романтизма.*

Ключевые слова: *литература, эмоции, романтизм, произведения, мифологическая тематика, творчество, личность, анализ.*